

## KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIIJY TILNI O'RGATISH USLUBLARI

**Qaxorova Marjona Bahodirovna**

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali 2 -bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish uslublari haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada yosh bolalarga yangi xorijiy tillarni o'rgatishda samara beradigan metodlar, shuningdek qiziqarli o'yinlar o'rgatishning samaradorligi, ularning bir tilni emas, balki bir qancha xorijiy tillarni o'rganishini tashkil etish haqida fikrlar beriladi. Xorijiy tillarni o'rgatishda ayniqsa yosh bolalarga o'qitishda nimalarga ahamiyat berish zarurligi to'g'risida bir qancha ilmiy va amaliy xulosalar bu maqolada jamlandi.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy tili, yosh bolalar, qiziqarli o'yinlar, aqliy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar, multfilmlar, topishmoqlar topish, metodlar, rasmlar, o'rgatish, rivojlanish.

Hozirgi globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Xorijiy tillarni necha yoshdan o'rgangan ma'qul Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson oz'lashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi shuning uchun xorijiy tilni qollanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilshini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shunigdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psihologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Hozirgi kunda nafaqat mifik maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki bog'cha tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Buning sababi bor, albatta. Iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Mamlakatimizda 2012-yil 10-dekabrda qabul

qilingan «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013–2014-o'quv yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda maktabgacha ta'lif muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lif tizimida ma'nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida organan bilimi ajdodlarimiz aytganidek “toshga bitilishi” bejis emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan.

Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'rgana oladilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy tabiiylik, ularda taqlid qilish kuchli, kattalarga nisbatan bolalarning ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Hatto K.D.Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: “Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi”. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Buning uchun maktabgacha ta'lif tashkilotlari bolalariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik berishdan boshlamasligi zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish mumkin.

Yosh bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardag'i asosiy tushuncha miyasida rasmiy holda tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi. Maktabgacha ta'lifda hamda boshlang'ich sinflarda ta'lif olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi.

Agar farzandingiz 3-7 yosh oralig'ida bo'lsa, unda ingliz tilidagi multfilmlar qo'yib berish, ingliz tilidagi joy, meva, ranglar nomi yozilgan o'yinlar o'ynatish tavsiya qilinadi. Online materiallardan foydalansangiz, birgalikda tomosha qiling. Masalan, videoda qizil rangni “red” deb aysa, savol berish orqali bola xotirasiga mustahkamlanishiga ko'maklashing. Mashina qanday

rangda ekani, bu rang ingliz tilida nima deyiladi singari savollar berib, birgalikda shug'ullansangiz, tezroq natija kuzatiladi. Maktab yoshidagi bolalar uchun geymifikasiya — o'yin mexanikasi yaxshi variant. Mashg'ulot davomida ko'rgazmali qurollar, suratlar, qo'llanmalar, kartalardan foydalaning. Shug'ullanish davomida yaxshi natija qayd qilsa, rag'batlantiring. Istagi bilan bog' lab motivatsiya bering.

Har qanday vaziyat va faoliyatlar zamirida ingliz tilini o'rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda inlgiz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg'uni ingliz tiliga berish kerak. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gaprish ohangi bilan bolani o'ziga jalb qila olishi til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan, til o'rgatuvchi murabbiylarning "Playing with blocks or legos" (bloklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), "Dressing" (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), "Animals and their sounds" (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), "Crafts" (qo'l mehnati yordamida turli narsalar yasash), Sing a song (qo'shiq kuylash) kabi ta'limiylar turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o'rganish ko'nikmalarini shaklantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo'lamiz.

"Playing with blocks or legos" Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan bloklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Bloklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'yinlarda so'z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o'yin orqali sanashni va tartiblashni o'rganadi: How many blocks are there? ( u yerda nechta kubik bor? ) Shall we put the blue ones here? ( bu yerga ko'k kubikni qo'yamizmi? ) Narsalar joylashuvini predloglar orqali o'rganadilar: in(ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida). O'Ichov birliklari haqida tushuncha ega bo'ladilar: big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa). Quyidagi so'zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko'rsatma beriladi: Find the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko'k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, pleaser! (mashina yasang!). Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta'rif beriladi: rectangle(to'g'ri to'rtburchak), tower(minora), square(kvadrat), house(uy), castle(saroy), garden(bog') kabilardir.

Bolajon 12 yosh bo'lsa, demak, siz unga til o'rganishi kerakligini jiddiyroq tushuntirishingiz mumkin, lekin murakkablashtirmang. Motivatsion usuldan foydalaning. Tilni yaxshi o'rgansa, kelajakda o'zi xohlaganidek mashina haydashini, sevimli futbol komandasini o'yinini stadionning o'zidan tomosha qilishini, sayohat qila olishi mumkinligini anglating. Bola psixologiyasidan kelib chiqib, yoqtirgan narsasi bilan hayotiy maqsadlarni bog'lab, til o'rgansa, o'sha narsaga erisha olishi mumkinligini bildiring. Bolani vazifaga ko'mib tashlab, majburlab o'rgatishdan foyda yo'q, asosiysi, qiziqtirib o'zida xohish uyg'onishiga sababchi bo'ling, ammo nazorat qilib turishni yoddan chiqarmang.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarning mакtabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muxuti, mahalla e'tibori hamda maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillami bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: – 4 -bet.
2. Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. — Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p.291.
3. Д. Д. Джалалов, Г. И. Стравчинская. Книга для учителя к учебнику английского языка для VI класса узбекской школы. — Ташкент: Укитувчи, 1973 (va keyingi nashrlari). — 23—27-betlar.
4. Zimnyaya I.A. Psychology of teaching foreign language at school/ M:Education, 1991-219p.
5. Юсупов, Л. С. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishda ta'limi o'yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar / Л. С. Юсупов. — Текст : непосредственный // Молодой учёный. — 2020. — № 26 (316). — С. 339-343. — URL: <https://moluch.ru/archive/316/72186/> (дата обращения: 04.05.2024).